DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK BITIMLARIDA XORIJIY INVESTOR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH: MILLIY QONUNCHILIK VA XALQARO INVESTITSIYA HUQUQI KESISHMASIDA

Yaxshiboyev Mirvohid
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro tijorat huquqi yo‘nalishi
Magistranti. Elektron pochta:
yaxshiboyevmirvohid@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.24399755

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) bitimlari doirasida xorijiy investor huquqlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlari tahlil qilingan. «Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida»gi va «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi qonunlar normalari UNCITRAL Namunaviy qonunchilik qoidalari, Jahon banki tavsiyalari hamda ICSID amaliyoti bilan qiyoslangan. Ikki qonundagi qonunchilik o‘zgarishidan himoya kafolatlari o‘rtasidagi kolliziya, nizolarni hal etish normasining havola xarakteri va erta bekor qilishda kompensatsiya standartining yo‘qligi aniqlangan. Ularni bartaraf etish bo‘yicha qonunchilik takliflari ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: davlat-xususiy sheriklik, xorijiy investor, xususiy sherik, barqarorlik sharti, qonunchilik o‘zgarishi, erta bekor qilish, investitsiya arbitraji, ICSID.

Аннотация. В статье анализируются правовые механизмы защиты прав иностранного инвестора в соглашениях о государственно-частном партнерстве (ГЧП) в Республике Узбекистан. Нормы законов «О государственно-частном партнерстве» и «Об инвестициях и инвестиционной деятельности» сопоставлены с Типовыми законодательными положениями ЮНСИТРАЛ, рекомендациями Всемирного банка и практикой МЦУИС. Выявлены коллизия гарантий от изменения законодательства, отсылочный характер нормы о разрешении споров и отсутствие стандарта компенсации при досрочном расторжении. Предложены изменения законодательства.
Ключевые слова: государственно-частное партнерство, иностранный инвестор, частный партнер, стабилизационная оговорка, изменение законодательства, досрочное расторжение, инвестиционный арбитраж, МЦУИС.

Abstract. The article examines the legal mechanisms protecting foreign investors in public-private partnership (PPP) agreements in the Republic of Uzbekistan. Provisions of the Law on Public-Private Partnership and the Law on Investments and Investment Activity are compared with the UNCITRAL Model Legislative Provisions, World Bank guidance and ICSID practice. The study identifies a conflict between two change-in-law guarantees, the purely referential nature of the dispute resolution rule and the absence of a statutory compensation standard upon early termination, and proposes legislative amendments.
Keywords: public-private partnership, foreign investor, private partner, stabilization clause, change in law, early termination, investment arbitration, ICSID.

Kirish

O‘zbekistonda DXSh mexanizmi qisqa vaqt ichida investitsiya siyosatining markaziy vositasiga aylandi. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) hisobiga ko‘ra, DXSh portfeli 2021–2024-yillarda 6,2 mlrd AQSh dollaridan 31 mlrd AQSh dollarigacha o‘sgan va YaIMning 27

foiziga yetgan.[1] Prezidentning PQ-308-son qarori 2024–2030-yillarda DXSh loyihalariga kamida 30 mlrd AQSh dollari xususiy investitsiya jalb qilishni nazarda tutadi.[2] Yirik energetika, transport va kommunal loyihalarda xususiy sherik, odatda, xorijiy kompaniya yoki xorijiy kapital ishtirokidagi loyiha kompaniyasidir.

DXSh bitimi oddiy fuqarolik-huquqiy shartnomadan farq qiladi: uning bir tarafi bir vaqtning o‘zida shartnoma tarafi va ommaviy hokimiyat egasi hisoblanadi. Davlat tariflarni, soliqlarni va sohani tartibga soluvchi qoidalarni o‘zgartirish orqali bitimning iqtisodiy muvozanatiga bir tomonlama ta’sir ko‘rsata oladi. Shu sababli xorijiy investor uchun asosiy savol – qonunchilik o‘zgarganda, bitim bekor qilinganda yoki nizo kelib chiqqanda qaysi huquqiy vositalarga tayanishi mumkinligidir.

Ushbu maqolaning maqsadi – O‘zbekiston qonunchiligida DXSh bitimi doirasida xorijiy investor himoyasining milliy va xalqaro darajadagi vositalarini aniqlash, ular o‘rtasidagi bo‘shliq va ziddiyatlarni ko‘rsatish hamda takomillashtirish yo‘nalishlarini taklif qilishdir.

Metodlar

Tadqiqotda formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tizimli va keys-tahlil usullaridan foydalanildi. Normativ materiallar lex.uz milliy ma’lumotlar bazasidagi amaldagi tahrirlar bo‘yicha (2026-yil 19-noyabr holatiga) tahlil qilindi. Qiyosiy etalon sifatida UNCITRALning DXSh bo‘yicha Namunaviy qonunchilik qoidalari[3] va Jahon bankining DXSh shartnomaviy qoidalari bo‘yicha qo‘llanmasi[4] tanlandi. Xalqaro shartnomalarning amal qilish holati ICSID va UNCTAD rasmiy bazalari orqali tekshirildi. Arbitraj amaliyoti DXSh, konsessiya va infratuzilma loyihalariga oid ICSID qarorlaridan tanlab olindi.

1. Xorijiy investor himoyasi manbalarining tizimi

Xususiy sherik himoyasi uch darajada amalga oshiriladi. Birinchi daraja – konstitutsiyaviy kafolatlar. Konstitutsiyaning 65-moddasiga ko‘ra xususiy mulk daxlsiz bo‘lib, mulkdor mulkidan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda, sud qarori asosida mahrum etilishi mumkin; 67-moddada davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta’minlashi belgilangan.[5] Konstitutsiyaning 15-moddasiga ko‘ra, xalqaro shartnomada qonundagidan boshqacha qoidalar

---

[1] Dwight L. Uzbekistan and Public-Private Partnerships: Country Lessons. IMF Selected Issues Paper SIP/2025/087. – Washington, DC: International Monetary Fund, June 2025. – P. 6. URL: https://www.imf.org/en/Publications/selected-issues-papers/Issues/2025/06/27/Uzbekistan-and-Public-Private-Partnerships-Country-Lessons-Republic-of-Uzbekistan-568107.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasida 2024–2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-308-son qarori // URL: https://lex.uz/docs/7089558.

[3] UNCITRAL Model Legislative Provisions on Public-Private Partnerships (2019). – New York: United Nations, 2020. URL: https://uncitral.un.org/en/texts/procurement/modellaw/public_private_partnerships.

[4] World Bank. Guidance on PPP Contractual Provisions. 2019 Edition. – Washington, DC: World Bank, 2019. URL: https://ppp.worldbank.org/public-private-partnership/library/guidance-ppp-contractual-provisions-2019-edition.

[5] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprelda referendumda qabul qilingan yangi tahriri), 65, 67-moddalar // URL: https://gov.uz/oz/mfa/sections/view/14475.

belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.[6] Xuddi shunday qoida DXSh to‘g‘risidagi Qonunning 2-moddasida ham mustahkamlangan.[7]

Ikkinchi daraja – qonun va bitim. DXSh to‘g‘risidagi Qonunning 7-bobi («Xususiy sherik va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish») ikki moddadan iborat: 34-modda (xususiy sherik huquqlarining kafolatlari) va 35-modda (kreditor manfaatlarini himoya qilish).[8] Xorijiy investor sifatida xususiy sherik Investitsiyalar to‘g‘risidagi qonundagi umumiy kafolatlarga ham da’vo qilishi mumkin: kamsitmaslik (15-modda), mablag‘larni erkin o‘tkazish (17-modda), noqulay qonunchilikdan himoya (19-modda) va natsionalizatsiyadan himoya (21-modda).[9]

Uchinchi daraja – xalqaro-huquqiy himoya. O‘zbekiston 1995-yildan ICSID Konvensiyasi,[10] 1996-yildan Nyu-York konvensiyasi ishtirokchisi[11] va UNCTAD ma’lumotlariga ko‘ra 50 ta amaldagi ikki tomonlama investitsiya shartnomasiga (BIT) ega.[12] Arbitraj amaliyotida qurilish va infratuzilma shartnomalari, agar ular hissa qo‘shish, muayyan muddat va tavakkalchilik belgilariga ega bo‘lsa, «investitsiya» deb tan olinadi.[13] Uzoq muddatli DXSh bitimi bu belgilarga odatda to‘liq javob beradi, shuning uchun xususiy sherik BIT himoyasidan foydalanish imkoniyatiga ega.

Ammo xalqaro himoya so‘zsiz emas. Metal-Tech v. Uzbekistan ishida tribunal investitsiya korrupsiya yo‘li bilan amalga oshirilganini aniqlab, ishni ko‘rib chiqish yurisdiksiyasidan voz kechgan.[14] Bu qaror DXSh uchun muhim: xususiy sherikni tanlash bosqichidagi shaffoflik

---

[6] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprelda referendumda qabul qilingan yangi tahriri), 15-modda // URL: https://gov.uz/oz/mfa/sections/view/14475.

[7] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi «Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida»gi O‘RQ-537-son Qonuni, 2-modda // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-4329270.

[8] Law of the Republic of Uzbekistan on Public-Private Partnership (as amended by Law No. 669 of 22 January 2021). Unofficial translation // Asian Development Bank, Law and Policy Reform. URL: https://lpr.adb.org/resource/law-public-private-partnership-2021-uzbekistan.

[9] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi O‘RQ-598-son Qonuni, 15, 17, 19, 21-moddalar // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-4664142.

[10] Convention on the Settlement of Investment Disputes between States and Nationals of Other States (Washington, 18.03.1965). O‘zbekiston tomonidan 17.03.1994 da imzolangan, ratifikatsiya yorlig‘i 26.07.1995 da topshirilgan, 25.08.1995 dan kuchga kirgan. Qarang: ICSID/8-A. Contracting States (as of 9 July 2026). URL: https://icsid.worldbank.org/sites/default/files/2026-07/2026_July9_ICSID8.pdf; Legal 500. Uzbekistan: Investment Treaty Arbitration. URL: https://www.legal500.com/guides/chapter/uzbekistan-investment-treaty-arbitration/.

[11] Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards (New York, 10.06.1958). O‘zbekiston 07.02.1996 da qo‘shilgan, 07.05.1996 dan kuchga kirgan, qo‘shilishda shart va bayonotlar qilinmagan. Qarang: Legal 500. Uzbekistan: Investment Treaty Arbitration. URL: https://www.legal500.com/guides/chapter/uzbekistan-investment-treaty-arbitration/.

[12] UNCTAD Investment Policy Hub. International Investment Agreements Navigator: Uzbekistan. URL: https://investmentpolicy.unctad.org/international-investment-agreements/countries/226/uzbekistan.

[13] Salini Costruttori S.p.A. and Italstrade S.p.A. v. Kingdom of Morocco, ICSID Case No. ARB/00/4, Decision on Jurisdiction, 23 July 2001, para. 52.

[14] Metal-Tech Ltd. v. Republic of Uzbekistan, ICSID Case No. ARB/10/3, Award, 4 October 2013. URL: https://www.italaw.com/cases/2272.

(DXSh to‘g‘risidagi Qonun 4-moddasidagi korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik tamoyili)[15] keyinchalik investorning xalqaro himoyaga ega bo‘lish-bo‘lmasligini ham belgilaydi.

2. Qonunchilik o‘zgarishidan himoya: ikki rejim kolliziyasi

DXSh to‘g‘risidagi Qonunning 34-moddasi birinchi qismiga ko‘ra, bitim tuzilganidan keyin qonunchilik o‘zgarishi xususiy sherik tomonidan asosli ravishda qilingan xarajatlarning oshishiga yoki daromadning kamayishiga bevosita olib kelsa, xususiy sherik tariflarni kompensatsion oshirish, davlat sherigidan bir martalik to‘lov yoki bitim shartlarini (shu jumladan muddatni) o‘zgartirishni talab qilishga haqli. Kafolatlarni qo‘llash tartibi, cheklovlar va istisnolar bitimda belgilanadi (ikkinchi qism). Uchinchi qismga ko‘ra bu qoida soliqlar va yig‘imlar o‘zgarishiga nisbatan qo‘llanilmaydi, muayyan DXSh loyihasiga nisbatan kamsituvchi o‘zgarishlar bundan mustasno.[16]

Bu yondashuv xalqaro amaliyotdagi «iqtisodiy muvozanat» modeliga mos keladi: qonunchilik muzlatilmaydi, balki uning salbiy iqtisodiy oqibati kompensatsiya qilinadi. Adabiyotda ham bunday zamonaviy barqarorlik shartlari davlatning tartibga solish suvereniteti bilan ko‘proq uyg‘un ekani qayd etiladi.[17] Jahon banki qo‘llanmasi ham soliqlarning umumiy (kamsituvchi bo‘lmagan) o‘zgarishlarini, odatda, xususiy sherik tavakkalchiligi sifatida qoldirishni tavsiya qiladi.[18]

Muammo boshqa joyda. Investitsiyalar to‘g‘risidagi qonunning 19-moddasi xorijiy investorga, agar keyingi qonunchilik investitsiya shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, investitsiya qilingan sanada amalda bo‘lgan qonunchilikni 10 yil davomida qo‘llash kafolatini beradi.[19] Bu «muzlatish» (freezing) modelidir va u DXSh to‘g‘risidagi Qonundagi kompensatsion modeldan tubdan farq qiladi. Natijada xorijiy xususiy sherik uchun quyidagi savollar ochiq qoladi:

a) 34-modda maxsus norma sifatida 19-moddani istisno qiladimi yoki investor ikkalasiga birdan tayanishi mumkinmi?

b) umumiy soliq o‘zgarishlari 34-moddaning uchinchi qismiga ko‘ra kompensatsiya qilinmaydi, ammo 19-modda bo‘yicha 10 yil muzlatilishi mumkinmi?

v) muddati 10 yildan uzoq bo‘lgan DXSh bitimida 10 yildan keyin qaysi rejim amal qiladi?

Investitsiyalar to‘g‘risidagi qonunning 1-moddasi DXSh munosabatlari alohida qonun bilan tartibga solinishini ko‘rsatadi,[20] ammo kafolatlar nisbati haqida aniq qoida bermaydi. XVJ esa amaliyotda ko‘plab DXSh loyihalari Investitsiyalar to‘g‘risidagi qonun asosida, DXSh qonuni

---

[15] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi «Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida»gi O‘RQ-537-son Qonuni, 4-modda // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-4329270.

[16] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi «Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida»gi O‘RQ-537-son Qonuni, 34-modda (2021-yil 22-yanvardagi O‘RQ-669-son Qonun tahririda) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-4329270.

[17] Maniruzzaman A.F.M. The Pursuit of Stability in International Energy Investment Contracts: A Critical Appraisal of the Emerging Trends // Journal of World Energy Law & Business. – 2008. – Vol. 1, No. 2. – P. 121–157.

[18] World Bank. Guidance on PPP Contractual Provisions. 2019 Edition. – Washington, DC: World Bank, 2019. URL: https://ppp.worldbank.org/public-private-partnership/library/guidance-ppp-contractual-provisions-2019-edition.

[19] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi O‘RQ-598-son Qonuni, 19-modda // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-4664142.

[20] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi O‘RQ-598-son Qonuni, 1-modda // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-4664142.

talablarini chetlab o‘tgan holda imzolanganini qayd etgan.[21] Demak, bitimni rasmiylashtirish yo‘lining o‘zi investor himoyasi hajmini o‘zgartiradi. Bu huquqiy aniqlik tamoyiliga ham, DXSh to‘g‘risidagi Qonundagi teng sharoit va kamsitmaslik tamoyillariga ham to‘liq mos kelmaydi.

Arbitraj amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, aniq barqarorlik majburiyati bo‘lmasa, tribunallar davlatning qonunchilikni o‘zgartirish huquqini tan oladi. Parkerings v. Lithuania ishida tribunal investor qonunchilik o‘zgarmasligini oqilona kutishi uchun davlatning aniq va’dasi yoki shartnomaviy barqarorlik sharti zarurligini ta’kidlagan.[22] AES Summit v. Hungary ishida esa elektr energiyasi narxlarini tartibga solish choralari oqilona davlat siyosati sifatida baholanib, investor talablari rad etilgan.[23] Bundan kelib chiqadiki, milliy qonundagi aniq va izchil kafolat xorijiy investor uchun xalqaro himoyadan ko‘ra ishonchliroq vosita bo‘lishi mumkin.

3. Kreditorlar huquqlari va loyihaning bankka yaroqliligi

Xorijiy investor himoyasi faqat aksiyador huquqlari bilan cheklanmaydi: yirik DXSh loyihalari asosan loyiha moliyalashtirishi orqali, xalqaro moliya institutlari kreditlari hisobidan amalga oshiriladi. DXSh to‘g‘risidagi Qonunning 35-moddasi 2021-2022-yillardagi o‘zgartirishlardan so‘ng kreditorlarga davlat sherigi bilan bevosita bitim tuzish, xususiy sherikning loyiha huquqlari, aktivlari va ulushlarini garovga olish hamda kreditor va davlat sherigi xususiy sherikni tender o‘tkazmasdan yangi sherik bilan almashtirish (step-in) huquqini beradi.[24] Bu norma xalqaro standartlarga yaqinlashtirilgan va loyihaning bankka yaroqliligini (bankability) oshiradi.

Biroq 35-modda erta bekor qilishda kreditorlarga to‘lanadigan kompensatsiya miqdorini to‘liq bitim ixtiyoriga qoldiradi. Qonunning 27-moddasi ham bitimda erta bekor qilish shartlarini nazarda tutishni talab qiladi, ammo minimal standartni belgilamaydi.[25] Jahon banki qo‘llanmasida kompensatsiya bekor qilish asosiga qarab tabaqalashtiriladi: davlat sherigi aybi bilan bekor qilinganda xususiy sherik, odatda, qarz va investitsiya qilingan kapitalni qoplash bilan to‘liq kompensatsiya oladi, xususiy sherik aybi bilan bekor qilinganda esa kompensatsiya kamroq bo‘ladi, biroq kreditorlar manfaatlarini hisobga oladi.[26] Bunday minimal standartning qonunda yo‘qligi har bir loyihada uzoq muzokaralarga va kredit qiymatining oshishiga olib keladi.

---

[21] Dwight L. Uzbekistan and Public-Private Partnerships: Country Lessons. IMF Selected Issues Paper SIP/2025/087. – Washington, DC: International Monetary Fund, June 2025. – P. 11, para. 13. URL: https://www.imf.org/en/Publications/selected-issues-papers/Issues/2025/06/27/Uzbekistan-and-Public-Private-Partnerships-Country-Lessons-Republic-of-Uzbekistan-568107.

[22] Parkerings-Compagniet AS v. Republic of Lithuania, ICSID Case No. ARB/05/8, Award, 11 September 2007.

[23] AES Summit Generation Limited and AES-Tisza Eromu Kft. v. Republic of Hungary, ICSID Case No. ARB/07/22, Award, 23 September 2010.

[24] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi «Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida»gi O‘RQ-537-son Qonuni, 35-modda (O‘RQ-669 va O‘RQ-775-son Qonunlar tahririda) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-4329270.

[25] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi «Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida»gi O‘RQ-537-son Qonuni, 27-modda // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-4329270.

[26] World Bank. Guidance on PPP Contractual Provisions. 2019 Edition. – Washington, DC: World Bank, 2019. URL: https://ppp.worldbank.org/public-private-partnership/library/guidance-ppp-contractual-provisions-2019-edition.

4. Nizolarni hal etish: havola normadan tizimga

DXSh to‘g‘risidagi Qonunning 40-moddasida faqat sohadagi nizolar «qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi», deb ko‘rsatilgan.[27] Qonunning 27-moddasi nizolarni hal etish tartibini bitimning majburiy shartlari qatoriga kiritadi, ammo uning mazmuni qanday bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatmaydi.

Investitsiyalar to‘g‘risidagi qonunning 63-moddasi esa aniqroq tizimni belgilaydi: nizo avval muzokaralar, so‘ngra mediatsiya orqali hal etiladi, hal etilmagan nizo O‘zbekistonning tegishli sudida ko‘riladi; xalqaro arbitrajga esa faqat xalqaro shartnomada va (yoki) investor bilan tuzilgan kelishuvda arbitraj sharti mavjud bo‘lganda murojaat qilinadi.[28] Xalqaro arbitraj infratuzilmasi ham shakllangan: «Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida»gi Qonun UNCITRAL Namunaviy qonuni asosida qabul qilingan,[29] Toshkent xalqaro arbitraj markazi (TIAC) 2018-yilda tashkil etilgan,[30] 2026-yilda esa Toshkent xalqaro moliya markazi va uning tarkibida Toshkent xalqaro tijorat sudi tashkil etildi.[31]

Shunga qaramay, DXSh qonunida bu vositalar bilan bog‘lanish yo‘q. Davlat sherigi (vazirlik yoki hokimlik) bitimda xalqaro arbitraj shartini kelishishga vakolatlimi, bunday shart 63-moddadagi «davlat roziligi» sifatida qaraladimi – bu savollarga qonun javob bermaydi. XVJ hisobotida keltirilgan Chili tajribasi bunga muqobil namuna bo‘la oladi: u yerda DXSh nizolari avval mustaqil texnik ekspertlar paneli tomonidan ko‘riladi, xususiy sherik uning tavsiyasiga rozi bo‘lmasa, arbitrajga murojaat qilinadi.[32] Global amaliyotda DXSh bitimlarining qariyb uchdan bir qismi qayta muzokara qilinishini hisobga olsak,[33] tizimli nizolarni hal etish mexanizmi loyiha davomiyligini ta’minlash vositasidir.

5. Ekspropriatsiya va tartibga solish choralari

DXSh to‘g‘risidagi Qonunda ekspropriatsiya va natsionalizatsiyaga oid maxsus qoida yo‘q;[34] bu masala Investitsiyalar to‘g‘risidagi qonunning 21-moddasi bilan tartibga solinadi.

---

[27] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi «Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida»gi O‘RQ-537-son Qonuni, 40-modda // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-4329270.

[28] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi O‘RQ-598-son Qonuni, 63-modda // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-4664142.

[29] O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-fevraldagi «Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida»gi O‘RQ-674-son Qonuni // URL: https://lex.uz/docs/-5294106.

[30] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzurida Toshkent xalqaro arbitraj markazini (TIAC) tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-4001-son qarori // URL: https://uza.uz/ar/posts/o-zbekiston-respublikasi-savdo-sanoat-palatasi-huzurida-tosh-06-11-2018.

[31] O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 13-iyuldagi «Toshkent xalqaro moliya markazi to‘g‘risida»gi O‘RQ-1158-son Konstitutsiyaviy Qonuni (2026-yil 25-iyuldan kuchga kirgan) // URL: https://lex.uz/docs/-8323797.

[32] Dwight L. Uzbekistan and Public-Private Partnerships: Country Lessons. IMF Selected Issues Paper SIP/2025/087. – Washington, DC: International Monetary Fund, June 2025. – P. 15, para. 22. URL: https://www.imf.org/en/Publications/selected-issues-papers/Issues/2025/06/27/Uzbekistan-and-Public-Private-Partnerships-Country-Lessons-Republic-of-Uzbekistan-568107.

[33] Dwight L. Uzbekistan and Public-Private Partnerships: Country Lessons. IMF Selected Issues Paper SIP/2025/087. – Washington, DC: International Monetary Fund, June 2025. – P. 14. URL: https://www.imf.org/en/Publications/selected-issues-papers/Issues/2025/06/27/Uzbekistan-and-Public-Private-Partnerships-Country-Lessons-Republic-of-Uzbekistan-568107.

[34] Law of the Republic of Uzbekistan on Public-Private Partnership (as amended by Law No. 669 of 22 January 2021). Unofficial translation // Asian Development Bank, Law and Policy Reform. URL: https://lpr.adb.org/resource/law-public-private-partnership-2021-uzbekistan.

Unga ko‘ra investorlarning investitsiyalari natsionalizatsiya qilinmaydi, rekvizitsiya yoki ekspropriatsiya esa faqat favqulodda holatlarda, kamsitishsiz va zararga mos kompensatsiya to‘lagan holda amalga oshirilishi mumkin.[35]

DXSh sohasida xavf odatda bevosita olib qo‘yish emas, balki bilvosita ekspropriatsiya – tariflarni muzlatish, litsenziyani to‘xtatish yoki bitimni bir tomonlama bekor qilish shaklida namoyon bo‘ladi. Biwater Gauff v. Tanzania ishida suv ta’minoti bo‘yicha DXSh bitimini bekor qilish va operator aktivlarini egallash ekspropriatsiya deb topilgan, ammo loyiha avvaldan zarar bilan ishlagani sababli kompensatsiya undirilmagan.[36] Bu ish ikki xulosaga olib keladi: birinchidan, davlat sherigi bitimni bekor qilishda qonuniy tartibga qat’iy rioya etishi lozim; ikkinchidan, kompensatsiyani hisoblash mezonlari bitim va qonunda oldindan belgilanishi davlat uchun ham, investor uchun ham huquqiy aniqlik yaratadi.

Shu bilan birga, ijtimoiy sohalardagi DXShda davlat xizmat sifatini nazorat qilish majburiyatini saqlaydi. Milliy adabiyotda to‘g‘ri ta’kidlanganidek, sifatni ta’minlash uchun qo‘llanilgan sanksiyalar xalqaro arbitrajda adolatli va teng munosabat standartining buzilishi sifatida baholanishi mumkin, shu sababli sifatni xolis o‘lchovchi mustaqil mexanizm zarur.[37] Demak, investor himoyasi davlatning tartibga solish vakolatini cheklash emas, balki uni shaffof va oldindan ma’lum mezonlarga bog‘lash orqali ta’minlanadi.[38]

Xulosa va takliflar

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda DXSh bitimlarida xorijiy investor himoyasi uchun zarur elementlar – konstitutsiyaviy kafolatlar, kompensatsion barqarorlik mexanizmi, kreditorlarning step-in huquqi, xalqaro konvensiyalar va arbitraj infratuzilmasi – mavjud. Asosiy muammo ularning tizimli bog‘lanmaganligidadir. Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. DXSh to‘g‘risidagi Qonunning 34-moddasini quyidagi mazmundagi qism bilan to‘ldirish: «Xususiy sherik xorijiy investor bo‘lgan taqdirda, unga nisbatan qonunchilik o‘zgarishidan himoya qilish kafolatlari ushbu modda yoki "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida"gi Qonunning 19-moddasi asosida qo‘llaniladi. Qo‘llaniladigan kafolat DXSh to‘g‘risidagi bitimda belgilanadi va bitim amal qilish muddati davomida o‘zgartirilmaydi».

2. DXSh to‘g‘risidagi Qonunning 40-moddasini ko‘p bosqichli tartib bilan to‘ldirish: muzokaralar; texnik va moliyaviy nizolar uchun mustaqil ekspert; mediatsiya; sud yoki arbitraj. Bitimda xalqaro arbitraj (shu jumladan ICSID yoki TIAC) shartini nazarda tutish mumkinligi va bunday shart Investitsiyalar to‘g‘risidagi qonun 63-moddasi ma’nosida davlat roziligi ekani to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilanishi lozim.

3. DXSh to‘g‘risidagi Qonunga «Bitimni muddatidan oldin bekor qilishda kompensatsiya» degan yangi modda kiritish va unda bekor qilish asoslariga qarab (davlat sherigi aybi, xususiy sherik aybi, fors-major) kompensatsiyaning minimal tarkibini Jahon banki qo‘llanmasi asosida belgilash.

---

[35] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi O‘RQ-598-son Qonuni, 21-modda // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-4664142.

[36] Biwater Gauff (Tanzania) Ltd. v. United Republic of Tanzania, ICSID Case No. ARB/05/22, Award, 24 July 2008.

[37] Beg‘amov M. Ta’lim davlat-xususiy sheriklik shartnomalarida sifat majburiyatlari: huquqiy kolliziya va adjudikatsiya masalalari // Yuridik fanlar axborotnomasi. – 2026. – Vol. 10, maxsus son. – B. 82–89. URL: https://review.tsul.uz/index.php/yfa/article/view/615.

[38] Dolzer R., Kriebaum U., Schreuer C. Principles of International Investment Law. 3rd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2022.

4. DXSh to‘g‘risidagi Qonunning 7-bobiga xususiy sherik mol-mulkini natsionalizatsiya, rekvizitsiya va ekspropriatsiyadan himoya qilish to‘g‘risidagi Investitsiyalar to‘g‘risidagi qonunning 21-moddasiga havola qiluvchi norma kiritish.

5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan qonunchilik o‘zgarishi, erta bekor qilish va nizolarni hal etish bo‘yicha DXSh bitimlarining namunaviy shartlarini ishlab chiqish va e’lon qilish.

Ushbu takliflar amalga oshirilsa, xorijiy investor uchun himoya hajmi bitimni rasmiylashtirish yo‘liga bog‘liq bo‘lmaydi, davlat esa xalqaro arbitrajdagi kutilmagan moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytiradi. Bu XVJ tomonidan tavsiya etilgan DXSh fiskal risklarini boshqarishni kuchaytirish talabiga ham mos keladi.[39]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprelda referendumda qabul qilingan yangi tahriri), // URL: https://gov.uz/oz/mfa/sections/view/14475.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi «Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida»gi O‘RQ-537-son Qonuni, // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-4329270.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi O‘RQ-598-son Qonuni, // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-4664142.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-fevraldagi «Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida»gi O‘RQ-674-son Qonuni // URL: https://lex.uz/docs/-5294106.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 13-iyuldagi «Toshkent xalqaro moliya markazi to‘g‘risida»gi O‘RQ-1158-son Konstitutsiyaviy Qonuni (2026-yil 25-iyuldan kuchga kirgan) // URL: https://lex.uz/docs/-8323797.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasida 2024–2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-308-son qarori // URL: https://lex.uz/docs/7089558.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktabrdagi «Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 720-son qarori // URL: https://lex.uz/acts/-7180726.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzurida Toshkent xalqaro arbitraj markazini (TIAC) tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-4001-son qarori // URL: https://uza.uz/ar/posts/o-zbekiston-respublikasi-savdo-sanoat-palatasi-huzurida-tosh-06-11-2018.
9. Convention on the Settlement of Investment Disputes between States and Nationals of Other States (Washington, 18.03.1965). O‘zbekiston tomonidan 17.03.1994 da imzolangan, ratifikatsiya yorlig‘i 26.07.1995 da topshirilgan, 25.08.1995 dan kuchga kirgan. Qarang: ICSID/8-A. Contracting States (as of 9 July 2026). URL: https://icsid.worldbank.org/sites/default/files/2026-07/2026_July9_ICSID8.pdf; Legal 500. Uzbekistan: Investment Treaty Arbitration. URL: https://www.legal500.com/guides/chapter/uzbekistan-investment-treaty-arbitration/.
10. Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards (New York, 10.06.1958). O‘zbekiston 07.02.1996 da qo‘shilgan, 07.05.1996 dan kuchga kirgan, qo‘shilishda shart va bayonotlar qilinmagan. Qarang: Legal 500. Uzbekistan: Investment

[39] IMF Executive Board Concludes 2025 Article IV Consultation with the Republic of Uzbekistan. Press Release No. 25/206, 18.06.2025. URL: https://www.imf.org/en/News/Articles/2025/06/18/pr-25206-uzbekistan-imf-executive-board-concludes-2025-article-iv-consultation.

Treaty Arbitration. URL: https://www.legal500.com/guides/chapter/uzbekistan-investment-treaty-arbitration/.
11. UNCITRAL Model Legislative Provisions on Public-Private Partnerships (2019). – New York: United Nations, 2020. URL: https://uncitral.un.org/en/texts/procurement/modellaw/public_private_partnerships.
12. World Bank. Guidance on PPP Contractual Provisions. 2019 Edition. – Washington, DC: World Bank, 2019. URL: https://ppp.worldbank.org/public-private-partnership/library/guidance-ppp-contractual-provisions-2019-edition.
13. Dolzer R., Kriebaum U., Schreuer C. Principles of International Investment Law. 3rd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2022.
14. Yescombe E.R., Farquharson E. Public-Private Partnerships for Infrastructure: Principles of Policy and Finance. 2nd ed. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 2018.
15. Delmon J. Public-Private Partnership Projects in Infrastructure: An Essential Guide for Policy Makers. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2017.
16. Maniruzzaman A.F.M. The Pursuit of Stability in International Energy Investment Contracts: A Critical Appraisal of the Emerging Trends // Journal of World Energy Law & Business. – 2008. – Vol. 1, No. 2. – P. 121–157.
17. Beg‘amov M. Ta’lim davlat-xususiy sheriklik shartnomalarida sifat majburiyatlari: huquqiy kolliziya va adjudikatsiya masalalari // Yuridik fanlar axborotnomasi. – 2026. – Vol. 10, maxsus son. – B. 82–89. URL: https://review.tsul.uz/index.php/yfa/article/view/615.